



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 19-noyabr

649-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat sohasida milliy brend egalari hamda nufuzli xalqaro brendlar hamkorlarini Savdoga ko‘maklashishi jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 8-noyabrdagi 748-son qarori ijrosi haqida”gi 550-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat sohasida milliy brend egalari hamda nufuzli xalqaro brendlar hamkorlarini Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 8-noyabrdagi 748-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi 550-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat sohasida milliy brend egalari hamda nufuzli xalqaro brendlar hamkorlarini Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 8-noyabrdagi 748-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi 550-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-noyabrdagi 748-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son qaroriga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining maxsus elektron platformasida har yili 1-aprelga qadar nufuzli xalqaro va milliy brendlarning ro‘yxati shakllantirilishi va e‘lon qilib borilishi;

nufuzli xalqaro brendlar ro‘yxatiga kiritilgan brend egalari bilan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlarga hamda milliy sanoat brendlari ro‘yxatiga kiritilgan brend egalari Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari qo‘llanilishining belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Milliy brend egalari va nufuzli xalqaro brendlar hamkorlarini Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi 550-6-0-Q/24-sonli qarori bilan:

Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (O.Akbarov) hamda boshqarma, idora va tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-noyabrdagi 748-son qarori talablari asosida ish tashkil etish vazifasi yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov